



BO'LAJAK TARBIYACHILARINI INKLYUZIV TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

M.A.Sattorova

ATMU Pedagogika kafedrası dotsenti

Sh.A.Ilhomova

ATMU boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish istiqbollari va bo'lajak tarbiyachilarning inklyuziv tayyorgarligini oshirish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada inklyuziv ta'limning ahamiyati, uning jamiyatdagi roli va o'quv muassasalarida jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ta'lim jarayoniga kiritish usullari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining inklyuziv ta'lim sohasidagi qonunlari, me'yoriy hujjatlari va qarorlari haqida batafsil ma'lumot beriladi. O'qituvchilarning maxsus pedagogik texnologiyalar va usullarni qo'llashga tayyorligi, ularning kasbiy tayyorgarligi inklyuziv ta'limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqola bo'lajak tarbiyachilarning insonparvarlik fazilatlarini rivojlantirish va ularning professional tayyorgarligini oshirish zaruriyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, bo'lajak tarbiyachilar, maxsus ehtiyojli bolalar, pedagogik texnologiyalar, o'zbekiston qonunchiligi, ta'lim integratsiyasi.

Jamiyatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri buyuk Vatanimizning kelajagini yaratuvchi yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Bu ishni amalga oshirishda, ya'ni sog'lom avlodni shakllantirish



ishlarida ta'lim-tarbiya asosiy o'rinni egallaydi. Mamlakatimizda ham barcha sohalar qatori inklyuziv ta'limni ham tubdan isloh qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” hamda “Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish” ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bu esa, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv tayyorgarligini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni amalga oshirish texnologiyalarini ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 1 dekabrda O'RQ-139-sonli “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”, 2008 yil 11-iyulda O'RQ-162-sonli “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida” va 2020 yil 23 sentabrda O'RQ-637-sonli O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevralda PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”, 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-sonli “Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2017 yil 1 avgustda F-5006-sonli “Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” Farmoyishi hamda 2016 yil 26 dekabrda PQ-415-sonli “Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida, 2007 yil 17 mayda PQ-100-sonli “Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari faoliyati to'g'risida” hamda 2020 yil 13 oktabrda PQ-4860-sonli “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” Qarorlari, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan. Shu bois ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning inklyuziv tayyorgarligi muammosi dolzarb hisoblanadi. Birgalikda o'qitish nafaqat “maxsus” bolalarga ijtimoiy o'zaro munosabatlarni o'rganishda yordam berishi, balki normotipik bolalarda hamdardlik, boshqa tushunarsiz xatti-harakatlarga nisbatan bag'rikenglik, hamdardlik



qobiliyatini va boshqa insonparvarlik qadriyatlarini rivojlantirishi kerak. Bu fazilatlar, albatta, o'qituvchilar va bolalar bilan ishlaydigan boshqa mutaxassislarda ham bo'lishi kerak. “Maxsus” bolalarni “maxsus bo'lmagan” bolalar bilan birga o'qitish oson ish emas, bu vaqtda qiyinchiliklar paydo bo'lishi muqarrar. Biz bu faoliyatga tayyor bo'lishimiz kerak. Nogiron bolalarni o'qitish uchun alohida uslubiy tayyorgarlik - maxsus dasturlar yoki pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, moslashtirish va amalga oshirish zarurati mavjud. Bunday pozitsiyani shakllantirish uchun gumanistik dunyoqarash, energiya va o'z-o'ziga xizmat qilish qobiliyatlari kerak. Oxirgi shartsiz, qiyin inklyuziya sharoitida ishlaydigan o'qituvchi kasbiy faoliyat xavfiga duchor bo'ladi. Bundan tashqari, maktablarda inklyuziv yondashuvni joriy etish ma'muriyatning faol ko'magisiz mumkin emas. Barcha xodimlar bitta pozitsiyada turishi va qiyin vaziyatlarda qanday harakat qilishning yagona algoritmini ishlab chiqishi uchun jamoa bilan uslubiy va tushuntirish ishlari olib borilishi lozim. Maktabda samarali psixologik yordam xizmati bo'lishi kerak. Uning xodimlari “maxsus” bolalarni kuzatib borish, bolalar va o'qituvchilar o'rtasida aloqa o'rnatish va qo'llab-quvvatlash, o'qituvchilar va ota-onalarni qo'llab-quvvatlash, sinf bilan tizimli ishlashga jalb qilinadi. Bunday ish “maxsus” bolalarni qabul qilish va qo'llab-quvvatlashga, qiyin vaziyatlarda ularga yordam berishga, ular uchun boshqa bolalar bilan o'qish nima uchun muhimligini, nega ba'zida o'zlarini g'alati tutishini, bu nimani anglatishini va ularga qanday qilib to'g'ri yordam berishni tushuntirishga qaratilgan bo'lishi nazarda tutiladi. O'zbekiston Respublikasining nogironlarga nisbatan olib boriladigan davlat siyosati “O'zbekiston Respublikasida nogironlarining ijtimoiy himoyalaniishi to'g'risidagi”gi qonuni bilan belgilandi. Bu qonun aholining mazkur guruhi boshqa fuqarolar bilan teng asosda to'la qonli hayot kechirish, jamiyat fuqorolik majburiyatlarini bajarishga yordam beradigan imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish maqsadida huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha tadbirlar tizimini ko'zda tutadi. Bu qonun aholi sog'ligini himoya qilish, nogironlikning oldini olish va nogironlarning jamiyat hayotiga singib ketishi uchun shart-sharoitlar yaratishga safarbar qilingan ijtimoiy jamiyatlar o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yadigan dastlabki jiddiy huquqiy hujjatlardan biri



hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim bu maxsus yordamga muxtoj bolalar va yoshlar uchun individuallashtirish va sharoitga qarab o'zgaruvchan, g'amxurlik bilan yondasha oladigan ta'lim tizimidir. Ushbu ishlar oddiy, me'yorda rivojlangan bolalar o'quv muassasalarida amalga oshiriladi. Inklyuziv-jalb etish ya'ni jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan o'zaro bog'lanib, birgalikda ta'lim olishidir. Buni amalga oshirish uchun har bir bolaga individual yondoshish, nuqsonidan kelib chiqqan holda ma'lum u uchun qulay sharoit yaratish, kerak bo'lsa, dastur va rejani qisman o'zgartirish va x.k. Anomal bola uyiga yaqin, o'ziga qulay ommaviy bog'cha yoki maktabga qatnaydi. U yerda asosiy ishni tarbiyachi yoki sinf rahbari amalga oshiradi. Xar bir maktabgacha tarbiya muassasasida yoki maktabda maxsus tayyorlangan resurs tarbiyachi bo'lib, u guruh tarbiyachisiga maslahatlar beradi va ko'maklashadi: maxsus o'qitish uskunolari, apparatlari bilan ta'minlaydi; ota-onalar, o'qituvchilar bilan tushuntirish ishlari o'tkazadi: dars jadvali, dasturga, kerak bulsa, o'zgartirishlar kiritadi, ularni asoslab beradi; o'qituvchilarni malakasini oshiradi, bilim mahoratini boyitadi; sog'likni saqlash xizmatlarini tashkil etadi, qulay psixologik muhitni yaratadi. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bulgan bolani oddiy bog'cha yoki maktabga joylashtirish integratsiya yo'lidagi birinchi qadam. Ta'lim integratsiyasining turli shakllari va darajalari mavjud. Jismoniy integratsiyada nogiron va sog'lom bola orasidagi jismoniy tafovut iloji boricha kamaytirilishi lozim. Buning uchun maxsus sinf yoki bulim tashkil etilishi mumkin. Funktsional integratsiyada nogiron va sog'lom bola orasidagi funktsional tafovut iloji boricha bartaraf etilishi lozim. Buning uchun alohida yordamga muxtoj bolalarni musiqa, san'at, drammatik to'garak va sportga jalb etish foydalidir.

Ijtimoiy integratsiya ijtimoiy tafovutni kamaytirishga, nogiron va me'yorda rivojlangan bolalarni o'zaro do'stlashishga, bir biriga xurmat bilan qarashga undaydi, me'yorda rivojlangan bolalarni muruvvatli bo'lishga o'rgatadi. Jamiyat nogiron kishilarga to'g'ri munosabatda bo'lishi kerak. Konstitutsiyamizdagi barcha bandlar ular uchun ham taalluqli. Har qanday ta'lim integratsiyasi inklyuziv ta'lim sifatini oshiradi. Inklyuziv ta'lim markazida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bola turadi, unga har tomonlama g'amxurlik kursatiladi. Integratsiyalashgan - mujassam, ajratib brlmaydigan qism degan maunoni bildiradi.



Xar bir bola ta'limga jalb etilishi lozim. Integratsiyalashgan jamiyatda barchalar teng xuquqqa ega, bu yaxlit jamiyatdir. Inklyuziv ta'lim tufayli jamiyat integratsiyalashgan jamiyatga aylanadi. O'zbekistonda defektologlarning olib borayotgan ishlari ham diqqatga sazovor. Maxsus muassasalarda olib borilayotgan ishlarda inklyuziv ta'lim elementlari talaygina. Ko'p yillardan beri umumta'lim maktabgacha tarbiya muassasalari, maktablarda maxsus guruh, sinflar tashkil etilgan va muvaffaqiyatli o'z vazifalarini bajarib kelmoqdalar. Har bir tumandagi yordamchi mehnat ta'limi maktabi, me'yorda rivojlangan bolalar ta'lim oluvchi muassasalarda ulgurmovchi o'quvchilar bilan yil davomida ma'lum ishlarni olib borishmoqda, ular uchun maxsus sinflar tashkil etilgan. Bola uyiga yaqin joylashgan maktabga qatnaydi. Yordamchi tenglashtiruvchi sinflar faoliyati, nutqiy guruh yoki sinflar faoliyati ham inklyuziv ta'lim shakllaridan biri bo'lib xisoblanadi. Bu esa har bir tarbiyachiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Bo'lajak maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari inklyuziv jarayonga insonparvarlik va kasbiy tayyorlanishi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedova M. T. Pedagogika O'quv qo'll. Pedagogik konfliktologiya-T.: Adabiyot uchqunlari, 2017. – 320.
2. Анцупов А. Я. Основы конфликтологии. -М.: 1998.
3. Begmatova Sevara Nematovna “The role and significance of specific competence types in the training of future teachers in modern education” ISBN 978-1-64945-234-4 DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.7527949>. CUTTING EDGE-SCIENCE 2022 Shawnee, USA November December
4. Исмоилова, Ю. Т. Формирование педагогического мастерства и культуры речи будущего учителя в процессе профессиональной подготовки. Образование и воспитание. — 2015. — № 3 (3). — С. 9-11. — URL: <https://moluch.ru/th/4/archive/9/141/> (дата обращения: 15.02.2023).



5. I Yulduz, M Umida. Pedagogical Features of the Formation of Pedagogical Ethics in Future Teachers- Бюллетень науки и практики, 2021. Related articles All 2 versions.
6. Ю.Исмоилова. “Формирование педагогического мастерства и культуры речи будущего учителя в процессе профессиональной подготовки”. “Образование и воспитание” научный журнал. г.Казан 2015.
7. Ismailova Zukhra Karabaevna, Kamola Riskulova, Axmedov Murodjon Ubaydullaevich, Ismoilova Yulduzkhon Turaevna, Pulatova Nozima Ravshanovna “The role of electronic pedagogical tools in higher education”. **SKOPUS** Journal of Critical Reviews ISSN-2394-5125 Vol 7, Issue 5, 2020.
8. Ю.Исмоилова Формирование организаторских умений средствами педагогической игры. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. Курск 2016.